

## IQLIM O'ZGARISHI VA GIDROSFERA

*“Buxoro davlat texnika universiteti”  
Sanoat ekologiyasi va gidrologiya kafedrasida o'qituvchisi  
Murodova Xilola Umarqulovna  
khillamurodova08@gmail.com  
Baxshulloyeva Durdona Jamshid qizi  
baxshulloyevadurdona36@gmail.com  
Sanoat ekologiyasi va gidrologiya kafedrasida talabasi*

**Annotatsiya:** Iqlim o'zgarishining kelajakda oilangiz, do'stlaringiz va butun insoniyatga ko'rsatadigan ta'siri internet ko'rsatadigan ta'sirga qaraganda kattaroq bo'ladi. Tasavvur qiling, axborot texnologiyasi va internet hayotimizning ko'plab jabhalarida keskin burilish yasashini chorak asr avval bilgansiz. Bu bilim siz va oilangiz uchun qanchalik qimmatli bo'lishi mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. Ma'lum bo'lishicha, biz hozir kelasi va undan keyingi chorak asrlarda iqlim o'zgarishi qay tarzda rivojlanib borishicha haqida qit'asida iqlimning jiddiy ta'sirlari allaqachon kuzatila boshlagan. 2014-yilgi bir nechta yirik ilmiy hisobotlar xulosasiga ko'ra, hozirda olib borilayotgan choralar keskin ravishda kuchaytirilmasa, iqlimning yanada xavfli ta'sirlari yuzaga kelishi muqarrar. Iqlim o'zgarishi kelgusida har bir oilaga ta'sir ko'rsatadi, demak, har bir kishi, siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, iqlim o'zgarishi asoslari haqida bilimga ega bo'lmog'i lozim. Inson yilliklarida omili natijasidagi iqlim o'zgarishi kelasi siz, oilangiz, do'stlaringiz qabul qilmoqchi bo'lgan ko'plab qarorlarda o'z aksini topadi. So'nggi bir necha yil ichida olimlar ko'p yillar oldin bashorat qilgan keskin ob-havo hodisalari sodir bo'lishi sezilarli darajada oshganini kuzatdik. Jazirama, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari, kuchli bo'ronlar va ular keltirib chiqargan toshqinlar bularga misol bo'ladi. Meteorolog va sobiq kuchaytirishga undovchi chaqiriqlari tobora ortib bormoqda. Garchi bularning bari iqlim o'zgarishi mavzusini yana xalqaro kundalik muhokama mavzusiga aylantirgan bo'lsa-da, inson faoliyati natijasida chiqayotgan issiqxona gazlari miqdori deyarli to'xtovsiz o'sib bormoqda. Bo'ron ovchisi doktor Jeff Masters 2012-yilda hozirgi iqlimga tarif bera turib, “Bu men ulg'aygan atmosfera emas” deydi. Issiqxona gazlari iqlimni tubidan o'zgartirayotgani va keskin ob-havo hodisalari ehtimolini karrasiga oshirib yuborayotganini tasdiqlovchi ilmiy adabiyotlarga ro'yxati ham tobora kengayib bormoqda. Shu sabablarni hisobga olgan holda, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo kengayishi, AQSH Milliy akademiyasi, Britaniya qirollik jamiyati, o'zgarishiga ko'plab ilmiy hamda xalqaro tashkilotlarning befarqlik xavfi to'g'risidagi ogohlantirishlari va iqlim qarshi kurashni kuchaytirishga chaqiriqlari tobora ortib bormoqda. undovchi

**Kalit so'zlar:** Gidrosfera, planeta, qutb tundrasi, tayga, atmosfera, ekvator, O'rta dengiz, gidrologik sikl, antropogen omil, suv resurslarining degradatsiyasi, ekotizm.

**KIRISH.** Ob-havo hodisasi qanchalik keskin yoki kamyob ekani odatda u qanchalik tez-tez takrorlanishga qarab belgilanadi Masalan, har 10 yilda bir, 100 yilda bir, 1000 yilda bir va hokazo. Garchi iqlim deb nisbatan qisqa davr oralig'ida, masalan, 10 yilda kichik miqdorda o'zgaruvchi meyor tushunilsa-da, insoniyat hozirda iqlimni

jadal o'zgartirib, "yangi meyorlar"ni yaratyapti. Ilgari 100 yilda bir kuzatilgan to'fonlar endi har 10 yilda sodir bolmoqda. Iqlim quruq va yarim cho'l hududlarni yanada issiq va qurg'oq joylarga aylantirilishi kutilyapti, demak kelajakda O'rta dengiz AQSHning janubi-g'arbida qurg'oqchilik mavsumlari uzoqroq va og'irroq bo'lishini taxmin qilishimiz mumkin. Bora-bora iqlim shu qadar o'zgaradiki, qurg'oqchilik bu hududlar uchun odatiy iqlim sharoitiga aylanadi. Gidrosfera planetamizning hamma suvlar-okean, dengiz, daryo, ko'l, muz, botqoq, tuproqdagi va atmosferadagi suvlar kiradi. Gidrosferadagi suvning miqdori 1mlrd. km<sup>3</sup> bo'lib, shundan 1mlrd suv yerdagi eng noyob mineral hisoblanib, uning o'rnini bosuvchi bironta modda yo'q. Suv yerdagi barcha tirik mavjudotlarning rivojlanishi va o'sishi uchun eng zarur va qimmatbaho mineral hisoblanib, quyidagi fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega: tabiatda suv bir vaqtning o'zida qattiq, suyuq va gaz holida uchraydigan yagona mineral; suv qanday holatda bo'lmasin, u boshqa moddalarni erituvchanlik xususiyatga ega; suvning qaynash harorati bosimga bog'liq holda o'zgaradi; suv ham boshqa moddalar singari isitilgach, uning hajmi kengayib, zichligi kamayadi, aksincha, nol gradusdan pastga tushsa, hajmi kengayadi, natijada butilkada va quvurlarda qolgan suv hajmi kengayib, uni yorib yuboradi, suvning ta'mi, hidi, rangi yo'qligi tufayli boshqa elementlardan ajralib turadi.



**Mavzuning dolzarbligi:** Biz yashaydigan tabiiy muhit juda xilma-xil, bu birinchi navbatda iqlimga bog`liq: sovuq va issiq iqlimli zonalar mavjud, qayerdadir qattiq shamol essa, boshqa yerda kuchli jala yog`adi. Iqlim Quyoshdan keladigan radiatsiya, yer yuzasining holati, atmosferadagi havo harakatlariga bog`liq. Har bir joyning iqlimi o`ziga xos xususiyatlari bilan boshqa joy iqlimidan farq qiladi. Yer yuzasida iqlim hosil qiluvchi jarayonlar, yani Quyoshdan keladigan issiqlik, suv bug`larining suvga aylanishi, namlikning bir joydan boshqa joyga olib borilishi to`xtovsiz zonalarini sodir bo`lib turadi. Yerning eng sovuq muzliklar bilan qoplangan. Yomg`ir ko`p yog`adigan yerlarni nam o`rmonlar qoplangan. Yomg`ir yog`maydigan joylar esa cho`llarga aylangan. Mo`tadil iqlimli yerlarda o`rmon va dalalar yastanib yotadi. Qutb tundrasining katta qismi muz bilan qoplangan. O`z mavsumida qorlar erigandan so`ng u yerlarda moxlar, lishayniklar va past bo`yli o`tlar o`sadi. Tayga shimoliy hududlarning cheksiz kengliklarini egallab yotadi. Unda doimiy yashil daraxtlar: barglari orniga ignalar bo`lgan qarag`ay, archa va tilog`och o`sadi. Sovuq iqlim. Qutbiy o`lkalarda Quyosh kam isitadi. Uzoq davom etadigan qish mavsumida termometr noldan ancha pastga tushib ketadi, yoz esa juda qisqa va salqin bo`ladi. Mo`tadil iqlim. Ekvator va qutblardan uzoqlashgan sari yil fasllarining o`zgarishi sezilib boradi: yoz issiq, qish sovuq, kuz va bahor salqinroq kechadi. Dengiz bo`ylariga yaqin o`lkalaridagina havo haroratidagi o`zgarishlar unchalik keskin bo`lmaydi.

Issiqlik iqlim. Ekvatorga yaqin joylashgan zonalarida Quyosh nuri tik yog`ingarchilikka bog`liq bo`ladi: ekvatorida yomg`ir juda ko`p, tropiklarda esa kamroq tushadi va kuchli isitadi. Bu o`lkalarda doim yoz bo`ladi.

**Xulosa.** Hozirgi davrda ekologik fojialar bir mamlakat yoki mintaqaga chegarasidan chiqib, global darajada katta hududni egallamoqda. Sodir bo`lgan global darajadagi ekologik muammolarni xalqaro tashkilotlar, davlat arboblari, siyosatchilarning aralashuvi orqali hal qilish mumkinligi ma`lum bo`lmoqda. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining tashabbusi bilan sayyoramizdagi ekologik muammolarini o`rganish bo`yicha xalqaro komissiya tuzilgan. Kommissiya ishining asosiy mazmuni sayyoramizdagi ekologik inqirozlar sababini aniqlash va uning oldini olish choralarini ko`rishga qaratilgan. Kommissiya ishining asosiy ishi xulosasi shundaki, har bir mamlakatda mustahkam iqtisodiy rivojlanish, undagi ekologik muammolarni e`tiborga olishga bog`liqdir. Kelgusida sayyoramizdagi insoniyatning yashab qolishi tashqi muhit holati va rivojlanishi bilan belgilanadi. Hidrosfera - yer sharining suv qobig`i. Yer sharining suv zaxiralarning 98%dan ko`pi okean, dengiz va ko`llarning shor suvlari. Chuchuk suv zaxiralari 28,25 mln.km<sup>3</sup> ga teng, bu gidrosferaning 2% ga yaqinini tashkil qiladi. Suv balansi bu tabiatdagi suvlar aylanam haralatinig va uni alohida qismlarning miqdoriy ifodasidir. Okean suvlarining yangilanish faolligi 3000 yil tashkil qiladi. Yerning chuqur qatlamlaridagi sho`r suvlarining o`ta sekin faolligi hisobiga yer osti suvlarining yangilanishi bir muncha sekin. Lekin yerning faol yangilanish mintaqadagi yer osti suvlari har 300 yilda yangilanib turadi. Qutb qoplama muzliklari va baland tog`lardagi muzliklarning yangilanishi o`ta sekin yuz beradi. Suv resurslari ichida eng faol yangilanadigan suv resursi- bu atmosferadagi suv bug`laridir.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2020–2030-yillar–Toshkent, 2020.
3. Xolmatov X.X., Ismoilova N.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. To‘xtayev N., Abduqodirov A. Tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
6. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Enstiklopediyasi, 2015.
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Yashil energetika va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha materiallar. – Toshkent, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Atrof-muhit va ekologiya bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2022.
9. Jo‘rayev B., Usmonova N. Ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot. – Toshkent: Universitet, 2018. S.Dadayev, Q. Saparov.” Zoologiya”.Toshkent – 2011
10. Turob Tilovov. O‘qituvchi nashriyot - matbaa Ekologiya. Toshkent-2014. ijodiy uyi
11. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi: oquv qollanma/ S.Buriyev.D.Maxkamova,V.Sherimbetov,-Toshkent:”Noshir” nashriyoti-2019